Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Бобожонова Дилором Бобожоновa
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор, Наманган давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova
YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....5

2. Abdurasul Boltaev
TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O'RNI.....12

3. Muysin Dusaliyev
QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI.....21

4. Кобзева О.П.
ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КУШАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ОТ ТОРГОВОЙ ДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ».....30

5. Ulmas Muminov
"DASHT MADANIYATI" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....37

6. Asliddin Namazov
XX ASRNING 30-YILLARI MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING KOMFIRQA SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....42

7. Jurabek Polvonov
XIVA XONLIGI DIPLOMATIYASI VA ELCHILIK MUNOSABATLARI: TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI.....46

8. Soxiba Sulaymanova
G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI.....55

9. Rano Urazova
THE AMESHAPENTA SYSTEM IN ZOROASTRIANISM AND ITS FUNCTIONAL ESSENCE: CONCEPTS OF GOODNESS AND DIVINE ORDER.....60

10. Муродилла Ҳайдаров
Г. САФАРОВНИНГ МУСТАМЛАКА ИНҚИЛОБИ (ТУРКИСТОН ТАЖРИБАСИ) АСАРИДАН ПАРЧА.....70

11. Ғайратбек Хайдаров
ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида).....82

12. Тохир Шокиров
РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И ЕГИПТА В ДРЕВНОСТИ.....89

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Soxiba Baxodirovna Sulaymanova,
Qarshi davlat universiteti
doktoranti (DSc), dotsent
s.sohiba@gmail.com

G‘ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI

For citation: Sokhiba B. Sulaymanova. THE RISE AND DECLINE OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24141384

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va Yevroosiyo makonida ulkan geosiyosiy, harbiy-ma’muriy hamda madaniy mavqega ega bo‘lgan G‘arbiy Turk xoqonligining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari va tanazzulga uchrash jarayonlari kompleks va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida yagona Turk xoqonligining VI asr oxiri - VII asr boshlarida ichki nizolar va tashqi kuchlar ta’sirida parchalanishi hamda Ashina sulolasi boshchiligida mustaqil G‘arbiy xoqonlikning (On oq budun) shakllanish omillari tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘arbiy Turk xoqonligi, On oq budun, Ashina sulolasi, Tun yabg‘u xoqon, Suyab, Tang sulolasi, Dulo va Nushibi, ichki nizolar, tanazzul, ilk o‘rta asrlar.

Сулайманова Сохиба Баходировна,
Каршинский государственный университет
докторант (DSc), доцент
s.sohiba@gmail.com

СТАНОВЛЕНИЕ И УПАДОК ЗАПАДНО-ТЮРКСКОГО КАГАНАТА

АННОТАЦИЯ

В статье представлен всесторонний и систематический анализ процесса формирования, этапов развития и упадка Западно-тюркского каганата - государства, которое в эпоху раннего Средневековья обладало значительным геополитическим, военно-административным и культурным влиянием в Центральной Азии и Евразийском регионе. На основе исторических источников в работе рассматривается распад единого Тюркского каганата в конце VI - начале VII веков, обусловленный внутренними конфликтами и внешним давлением, а также исследуются факторы, приведшие к созданию самостоятельного Западно-тюркского каганата (известного как «Он ок будун») под властью династии Ашина.

Ключевые слова: Западно-тюркский каганат, «Он ок будун», династия Ашина, Тун-ябгу-каган, Суяб, династия Тан, Дулу и Нушиби, внутренние конфликты, упадок, раннее Средневековье.

Sokhiba B. Sulaymanova,
Karshi State University
Doctoral Candidate (DSc), Associate Professor
s.sohiba@gmail.com

THE RISE AND DECLINE OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE

ABSTRACT

This article presents a comprehensive and systematic analysis of the formation, development, and decline of the Western Turkic Khaganate - a state that, during the early Middle Ages, exerted significant geopolitical, military-administrative, and cultural influence across Central Asia and the Eurasian region. Drawing on historical sources, the study examines the disintegration of the unified Turkic Khaganate in the late 6th and early 7th centuries-a process driven by internal conflicts and external pressures - and explores the factors that led to the establishment of an independent Western Turkic Khaganate (known as the “On Oq Budun”) under the rule of the Ashina dynasty.

Index Terms: Western Turkic Khaganate, "On Oq Budun" (Union of the Ten Arrows), Ashina dynasty, Tong Yabghu Qaghan, Suyab, Tang dynasty, Dulu and Nushibi, internal conflicts, decline, Early Middle Ages.

Dolzarbligi:

G‘arbiy Turk xoqonligi: Oltoy tog‘larining g‘arbidan to Qora dengiz shimoligacha, Volga – Ural bo‘ylaridan to Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan saltanat tushunilib, asosan, xronologik jihatdan ikkita turkiy sulola – Ashina xonadoni (568-704/740) va Turgash xoqonligi (699-766) davri bilan belgilanadi. Zamonaviy tarixshunoslikda G‘arbiy Turk xoqonligi va Turgash xoqonligiga alohida davlatlar sifatida qaralmoqda. [1]

Ko‘pchilik tadqiqotchilar qabul qilgan fikrga ko‘ra, G‘arbiy xoqonlikning tom ma’noda alohida davlatga aylanishi Istamining o‘g‘li Tardu xoqon (xit. Datu-kexan: g‘arbda – 576–583; sharqda – 600–603) hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bir guruh olimlar esa “Suy-shu”dagi ma’lumotga asoslanib, G‘arbiy Turk xoqonligining tashkil topishini sharqda bosh xoqonlikni qo‘lga kirita olmagan, Muqan xoqon (553–572) ning o‘g‘li Abo Dalobyan (*Apa Turum/To‘raman: 583/4–587) bilan aloqali, deb hisoblaydilar. YA’ni, Sharqiy xoqonlikdan siqib chiqarilgach, u Tarduni g‘arbdagi mulkdan uzoqlashtirishga muvaffaq bo‘ladi (shu sababli Tardu sharqda hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun harakat boshlaydi) va shu tarzda g‘arbda bir muddat o‘z sulolasini barpo qiladi. [2] Qisqa bir muddat G‘arbiy xoqonlikdagi hokimiyat ham Sharqiy xoqonlikdagi singari Istamining emas, uning og‘asi – Bumin (551–552)ning avlodlari qo‘liga o‘tadi. Apa xoqondan keyin Buminning evarasi Niri (Nili; 587–599), undan keyin Cho‘ra (Chulo: 599–610) G‘arbiy turk xoqonlari bo‘ladilar. Biroq keyinchalik Istami xonadoni yana hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishadi. [3]

Bu voqea 610-yillarda, Istamining evarasi Shegu (611–617) Cho‘ra xoqonni hokimiyatdan chetlatib, G‘arbiy xoqonlik boshqaruvini egallashi davriga to‘g‘ri keladi [Osawa 2002: 84; Golden 2002: 109]. Sheguyning vafotidan so‘ng G‘arbiy xoqonlik uning inisi Tun yabg‘u-xoqon (618–630) qo‘li ostiga o‘tadi. Ehtimol, G‘arbiy qanot boshqaruvchilarining yabg‘u-xoqon unvonida hokimiyat yurita boshlashlari aynan shu yillarga to‘g‘ri kelsa kerak. [4]

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yozilgan.

Garchi G‘arbiy turk xoqonlarining barchasi manbalarda yabg‘u-xoqon unvoni bilan qayd etilmasa-da, xitoy yilnomalaridan Tun yabg‘u-xoqondan keyin yana 3 nafar hukmdor ushbu qo‘shaloq unvon bilan tilga olinganiga guvoh bo‘lish mumkin: Istamining avlodi bo‘lmish Sir yabg‘u-xoqon (Si shexu-kexan; 631–633), Ishbara yabg‘u-xoqon (Shabolo shexu-kexan; 640–641), II. Tun yabg‘u-xoqon (695–700).

G‘arbiy Turk xoqonligi boshqaruvchilarining o‘zlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xoqon deb atamasdan, bir muddat yabg‘u-xoqon shaklidagi qo‘shaloq unvon bilan hokimiyat yurgizishlari ularning Sharqdagi bosh hukmdor – xoqonning ustunligini tan olishlarini ifodalagan bo‘lib, aftidan bu an’anaga har doim ham amal qilinavermagan. Chunki G‘arbiy qanot boshqaruvchilaridan bir nechasining hali ushbu qanot Xoqonlik maqomiga erisha olmagan paytlarda, hatto Yabg‘ulik pallalarida ham o‘zlarini “xoqon” deb ataganliklari manbalardan ma’lum. Jumladan, G‘arbiy qanot boshqaruviga mas’ul, Istamining o‘g‘li Tardu 576 yilda otasi vafot etgach, ushbu boshqaruvni meros olgan bo‘lsa-da, Sharqdagi bosh hukmdorlar bilan nizoga borib, o‘zini “xoqon” deb ataydi. [5] Bu uning ismi xitoy yilnomalarida Datu kexan, Chochda zarb qilingan tangalarda trδw x’γ’n (Tardu xoqon) shaklida uchrashida ham o‘z tasdig‘iga ega. [6] Shuningdek, Yabg‘ulik pallasida G‘arbiy qanotni boshqargan Niri (587–599), Cho‘ra (599–610), Sheguy (611–617) kabi hukmdorlarning xoqon unvon bilan hokimiyat yuritganliklari asosan xitoy yilnomalari, qisman esa sug‘diycha Ili bitiktoshidan ma’lum. [7]

Shu o‘rinda, markaziy hokimiyat Sharqiy xoqonlik mavjud bo‘lib turgan bir paytda ushbu hukmdorlarning xoqon unvoniga ega bo‘lishlari izoh talab qiladi. Ehtimol, markazda tez-tez yuz berib turadigan siyosiy zaifliklaridan foydalangan ba’zi G‘arbiy qanot boshqaruvchilari o‘zlarini «xoqon» deb e’lon qilishgandir. Faqat Sharqiy xoqonlik mavjud bo‘lgan paytda G‘arbiy qanot boshqaruvchilarining hammasi ham o‘zlarini tom ma’noda xoqon deb atay olmagan shekilli, manbalarda ulardan ba’zilari asosan yabg‘u yoki yabg‘u-xoqon– shexu-kexan (xitoy), Σιζίβουλος (yunon), jebu xagan (arman), jibg‘u (gruzin), Sinjepuk (o‘rta fors), Sin- jibu xoqon (arab, fors), ya-bgo xagan (tibet) shakllarida uchraydi. [8] 630- yillar boshida Tan imperiyasi Sharqiy Turk xoqonligiga barham bergach, G‘arbiy qanot (ya’ni Yabg‘u-xoqonlik) markaziy hokimiyatning vorisi o‘laroq mustaqil xoqonlikka aylanadi va hukmdorlar endi “xoqon” deb atalib, shu unvonda tanga chiqara boshlaydilar. [9]

Tadqiqot natijalari:

G‘arbiy Turk xoqonligi dastlabki 50 yildan ortiq davr – 568–630 yillar oralig‘ida G‘arbiy qanot maqomida, ya’ni Yabg‘ulik va Yabg‘u-xoqonlik paytida uni Istami (568–576), Tardu (576-583), Abo Dalobyan (*Apa Turum; 583–587), Niri (587–599), Cho‘ra (603–611), Sheguy (611–617), Tun yabg‘u-xoqon (618–630) kabi 7 nafar hukmdor boshqargan bo‘lib, bu davrda u siyosiy jihatdan asosan yuksalish davrini boshdan kechirdi. Bu uning yil sayin hududlari kengayib, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz dashtlari, Xuroson va Shimoliy Hindiston hududlarini o‘z tarkibiga kiritishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Istami davrida to Amudaryogacha yetib borgan xoqonlik chegaralari u va o‘g‘li Tardu davrida g‘arbda Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo‘ylarigacha, Sheguy va Tun yabg‘u-xoqon davrida esa janubi-g‘arbda Shimoliy Hindiston va Xurosonga, g‘arbda esa Janubiy Kavkazgacha kengayadi.

Tun yabg‘u-xoqonni o‘ldirgan amakisi Moxedu (Bahodur) 630 yilda taxtni egallaydi. Qariyb 30 yillik bir davr ichida xitoy yilnomalaridan ma’lum bo‘lishicha, xoqonlikni Moxedu (*Bahodur (630–631), Si Shexu kexan (Sir yabg‘u-xoqon; 631–633), Nishu Dulu (*Nizuk Dulu; 633–634), Shabolo Xilishi (*Ishbara Xili Sher (634–638), Yuygu Dulu (*Yuquq Dulu; 638–642), I Kyuyli Shi Bi (*El Kulug Sher Yyelbi; 640–641), Ibi Shabolo Shexu kexan (*Yyelbi Ishbara yabg‘u-xoqon; 641–642), Ibi Sheguy (*Yyelbi Sheguy; 642–649), Ashina Xelu (*Ulug‘; 651–657) kabi hukmdorlar boshqarishadi. [10] Bu davrda xoqonlikning yangi o‘lkalarni egallashga intilishi deyarli to‘xtab, xoqonlar orasida taxt talashuvlari avj oladi. Xitoyning Sharqiy Turkistondagi xoqonlikka qaram vassal hukmdorliklarga da’vosi kuchayadi va xoqonlikning bu yerdagi hokimiyati zaiflashib boradi. 650- yillarda Ashina Xelu qisqa bir muddat xoqonlik mavqeini tiklaydi va Xitoyga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib boradi. 657 yilda xitoy lashkarboshisi Su Din-fan unga qarshi safarga chiqib, qarorgoh Syuan-syan (Mingbuloq) qa yetib keladi va bir qator janglardan so‘ng xoqonni

Chu daryosi bo‘yida mag‘lubiyatga uchratadi. Xelu Shi (Choch) hukmdori Shuneu She (shad)ning huzuriga qochib, u yerdagi Sudu (Ushturkat) shahriga bekinadi. Shahar hokimi Inyye dagan (Inal tarxon) uni tutib, xitoy qo‘shinlariga topshiradi. [11]

Ashina Xelu tor-mor etilgach, Tan imperiyasi G‘arbiy xoqonlikdagi mavjud an’analar asosida “yangi ma’muriy taqsimot”lar joriy qilib, 3 harbiy voliylik (protektorat) ta’sis etadi: 1) Sharqiy Turkistonni ham o‘z ichiga olgan Gunlin, 2) Tyanshan tog‘larining shimolidagi keng mintaqani o‘z ichiga olgan Mengchi, 3) Tyanshanning g‘arbidagi o‘lkalar, ya’ni Erongacha bo‘lgan hududlardan iborat Ansi voliyliklari. Biroq ulardan faqat dastlabki ikkitasida haqiqiy Xitoy ustunligi mavjud bo‘ladi. Ushbu voqealardan keyingi o‘nyilliklarda ham G‘arbiy xoqonlik mustaqil bir davlat sifatida bo‘lmasa-da, Tan imperiyasiga qaram davlat tarzida mavjud bo‘ladi. Tan imperatorlari “O‘n O‘q” boshqaruvi tartibini buzmasdan, besh Nushibi qabilasining boshiga Ashina Bujchen (657–667)ni xoqon tayinlab, qarorgohi Suyabda bo‘lgan Mengchi (Xaochji) garnizonini, besh Dulu qabilasining boshiga Ashina Mishe (657–662)ni xoqon tayinlab, qarorgohi Talasda bo‘lgan Gunlin garnizonini tashkil etishadi. Aslida, ularning ikkalasi ham Tan imperatorlari tayinlagan “qo‘g‘irchoq xoqonlar” bo‘lib, ayni paytda Xitoyga qarashli ushbu garnizonlarning harbiy voliysi edilar. [12] Shu tariqa, G‘arbiy xoqonlikni 657 yildan to 740 yilgacha boshqargan 10 ga yaqin xoqon Xitoyga tobe o‘laroq hukm surishadi.

Xulosalar:

G‘arbiy Turk xoqonligi G‘arbiy qanot sifatida 560-yillarda shakllana boshlagan bo‘lib, uning 630-yillargacha bo‘lgan Yabg‘ulik yoki Yabg‘u-xoqonlik maqomidagi dastlabki 60 yilini “yuksalish davri”, 630–657 yillar oralig‘ini “mustaqil xoqonlik”, ayni paytda ichki nizolar davri, 657–740 yillar oralig‘ini esa “tanazzul davri” yoki Xitoy qaramog‘idagi “qo‘g‘irchoq xoqonlar hukmronlik qilgan davr” shaklida tasniflash mumkin. Yuksalish pallasida u hududiy jihatdan kengayish, yangi o‘lkalarni egallash (Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz bo‘ylari, Xuroson, Shimoliy Hindiston), vassallar ustidan o‘z hokimiyatini kuchaytirish (mahalliy hukmdorlarga eltabar unvonini berib, ular ustidan noib –tudun tayinlash), tashqi aloqalarda ustunlik qozonish (Sosoniylar Eronini bir necha bor mag‘lub qilish, Vizantiya bilan ittifoq tuzish, Xitoy bilan teng darajada diplomatik aloqalar o‘rnatish) kabi muvaffaqiyatlarga erishadi. Ikkinchi pallada esa xoqonlik, asosan, o‘z ichki masalalari bilan o‘ralashib qolish (xoqonlar o‘rtasida o‘zaro taxt talashuvlar, Dulu va Nu-shibi kabi ichki qanotlar orasidagi ziddiyatlar), ba’zi chekka hududlar nazoratining qo‘ldan chiqishi (Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz bo‘ylari, Sharqiy Turkiston) va tobe qabilalarning mustaqillikka intilishlari (se-yanto, qarluq, turgash va b.) singari voqeliklarni boshdan kechiradi. Uchinchi pallada esa, G‘arbiy xoqonlik ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, tashqi ta’sirlarning oshishi (xoqonlarning Xitoy tomonidan tayinlanishi, arab istilosi natijasida Xuroson va Amudaryo – Sirdaryo oralig‘ida xoqonlik nufuzining pasayishi) va ichki ziddiyatlar kuchayishi (Turgashlarning markaziy hududlarni egallab olishi va b.) kabi tom ma’nodagi tanazzul pallasiga kiradi. Nihoyat 740 yilda Ashina sulolasining so‘nggi vakili Ashina Sinning turgashlar tomonidan o‘ldirilishi natijasida barham topadi.

Qisqasi, yozma manbalar va numizmatik materiallar asosida G‘arbiy Turk xoqonligi Turk xoqonligida G‘arbiy qanot bo‘lib, davlat sifatida shakllanish jarayonida Yabg‘ulik (VI asr 60-yillari – so‘nggi choragi) – Yabg‘u-xoqonlik (VII asr boshi – shu asrning 30- yy.) – Xoqonlik (630-yy.dan 740- yy.gacha) kabi 3 bosqichni bosib o‘tganini kuzatish mumkin.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

[1] [Boboyorov G‘. G‘arbiy Turk xoqonligi:tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2021. – B. 38]

[2] [Wang, Zhongshu. Han Civilization. Translated by K. C. Chang and collaborators. Early Chinese Civilizations Series. New Haven: Yale University Press, 1982. – P. 124–132, 143–147; Golden P.B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. Ankara: KaraM, 2002. – S. 109].

[3] [Boboyorov G‘. G‘arbiy Turk xoqonligi:tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2021. – B. 41]

[4] [Boboyorov G‘. G‘arbiy Turk xoqonligi:tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2021. – B. 41]

[5] [Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 2. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 242]

[6] [Бабаяр Г., Кубатин А. К вопросу монетного чекана Западно-Тюркского каганата (на основе нумизматических материалов Ташкентского оазиса) // Тюркология. – 2005. – № 6. – С. 98, 102].

[7] [Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 1. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 279, 281; Osawa T. Batı Göktürk Kağanlığın’daki Aşinaslı Bir Kağan’ın Şeceresine ait Bir Kaynak // TÜRKLER. – Ankara, 2002. – Cilt 2. – S. 80–81].

[8] [Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. – СПб., 1903. – С. 226–228; Moravcsik G. Byzantinoturcica. II. Berlin: Akademie-Verlag, 1958. – P. 130–131, 290]

[9] [Boboyorov G‘. G‘arbiy Turk xoqonligi:tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2021. – B. 42-43]

[10] [Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 1. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 284–289; Кляшторный С. Г. Генеалогия и хронология западнотюркских и тюргешских каганов VI – VIII вв. // Из истории дореволюционного Киргизистана. – Фрунзе: Илим,1985. – С. 165–168.].

[11] [Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 1. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 292].

[12] [Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 1. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 292–293; Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara, 2003. – B. 111].

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000